

2020/2021



Tashkent State University of Law SDG Progress Report



SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS

1 NO POVERTY



2 ZERO HUNGER



3 GOOD HEALTH AND WELL-BEING



4 QUALITY EDUCATION



5 GENDER EQUALITY



6 CLEAN WATER AND SANITATION



7 AFFORDABLE AND CLEAN ENERGY



8 DECENT WORK AND ECONOMIC GROWTH



9 INDUSTRY, INNOVATION AND INFRASTRUCTURE



10 REDUCED INEQUALITIES



11 SUSTAINABLE CITIES AND COMMUNITIES



12 RESPONSIBLE CONSUMPTION AND PRODUCTION



13 CLIMATE ACTION



14 LIFE BELOW WATER



15 LIFE ON LAND



16 PEACE, JUSTICE AND STRONG INSTITUTIONS



17 PARTNERSHIPS FOR THE GOALS



SDG 1

“Xalqaro qishloq ayollari kuni” munosabati bilan Bo’ka tumani ayollari uchun huquqiy targ’ibot tadbiri o’tkazildi



- BMT Bosh Assambleyasining 2007-yil 18-dekabrdagi “Qishloq hududlarida ayollarning ahvolini yaxshilash” to’g’risidagi rezolyutsiyasiga asosan “15-oktyabr — Xalqaro qishloq ayollari kuni” deb e’lon qilingan.
- Ushbu sana munosabati bilan Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan Toshkent viloyati Bo’ka tumani hokimiyati va adliya boshqarmasi bilan hamkorlikda tuman ayollari uchun huquqiy targ’ibot tadbiri o’tkazildi.
- Tadbir doirasida TDYU Yuridik klinikasi mutaxassislari ishtirokchilar tomonidan bildirilgan masalalarga huquqiy yechim berildi.



SDG 1

Shuningdek, ayollar uchun universitetning iqtidorli talabalari tomonidan konsert dasturi hamda viktorinalar tashkil etildi. Yakunda xotin-qizlarga tuman hokimiyati va adliya bo'limi bilan hamkorlikda ayollarning huquqiy muammolarini hal etishga bag'ishlab chop etilgan kitoblar hamda esdalik sovg'alari taqdim etildi.



- TDYUda ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari uchun beg'araz tayyorlov kurslari o'tkazilmoqda
- Toshkent davlat yuridik universitetida Toshkent shahridagi umumta'lim mакtablarining 11-sinf o'quvchilaridan oliy ta'lим muassasalariga kirish istagida bo'lgan bitiruvchilar orasida ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari uchun beg'araz tayyorlov kurslari tashkil etilgan.
- Tayyorlov kurslarini o'tilishi bo'yicha reja jadval tasdiqlangan bo'lib, haftaning seshanba va payshanba kunlari "Tarix", "Ona tili" va "Ingliz tili" fanlaridan tayyorlov mashg'ulotlari olib borilmoqda.
- Tayyorlov mashg'ulotlari TDYUning professor-o'qituvchilaridan "Tarix" fani bo'yicha "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasi professori v.b. Hakimali Azimov, "Ona tili" fani bo'yicha "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti Nasiba Bozorova, "Ingliz tili" fani bo'yicha "Xorijiy tillar" kafesrasi o'qituvchisi Dildora Usarova tomonidan olib borilmoqda.
- Tayyorlov kursi mashg'ulotlari o'quvchilarning sohaga bo'lgan qiziqishi, mакtablarida olgan bilimini inobatga olgan holda zamonaviy ta'lим metodlari asosida olib o'tkazilmoqda.

SDG 1

Shuningdek, ayollar uchun universitetning iqtidorli talabalari tomonidan konsert dasturi hamda viktorinalar tashkil etildi. Yakunda xotin-qizlarga tuman hokimiyati va adliya bo'limi bilan hamkorlikda ayollarning huquqiy muammolarini hal etishga bag'ishlab chop etilgan kitoblar hamda esdalik sovg'alari taqdim etildi.



TDYUda ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari uchun beg'araz tayyorlov kurslari o'tkazilmoqda

- Toshkent davlat yuridik universitetida Toshkent shahridagi umumta'lim mакtabalarining 11-sinf o'quvchilaridan oliy ta'lим muassasalariga kirish istagida bo'lgan bitiruvchilar orasida ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari uchun beg'araz tayyorlov kurslari tashkil etilgan.
- Tayyorlov kurslarini o'tilishi bo'yicha reja jadval tasdiqlangan bo'lib, haftaning seshanba va payshanba kunlari "Tarix", "Ona tili" va "Ingliz tili" fanlaridan tayyorlov mashg'ulotlari olib borilmoqda.
- Tayyorlov mashg'ulotlari TDYUning professor-o'qituvchilaridan "Tarix" fani bo'yicha "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasi professori v.b. Hakimali Azimov, "Ona tili" fani bo'yicha "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti Nasiba Bozorova, "Ingliz tili" fani bo'yicha "Xorijiy tillar" kafesrasi o'qituvchisi Dildora Usarova tomonidan olib borilmoqda.
- Tayyorlov kursi mashg'ulotlari o'quvchilarning sohaga bo'lgan qiziqishi, mакtabalarida olgan bilimini inobatga olgan holda zamonaviy ta'lим metodlari asosida olib o'tkazilmoqda.

SDG 1

TDYU "Mehrli yurak" loyihasining navbatdagi xayriya aksiyasi tashkil etildi

Mazkur xayriya aksiyasida Toshkent viloyati Bo'ka tumani "Mehribonlik uyi" tarbiyalanuvchilari ishtirok etdi.

Xayriya aksiyasi davomida "Mehribonlik uyi" tarbiyalanuvchilari uchun tushlik, o'yinlar hamda konsert dasturi tashkil etildi.



Ramazon hayiti munosabati bilan Toshkent davlat yuridik universiteti talabalarining tashabbuslari bilan xayriya tadbiri tashkil etildi.

Sadaf to'yxonasida o'tkazilgan tadbirda Toshkent viloyati bo'ka tumanidagi 15-son mehribonlik uyi, Toshkent shahridagi 77-son ixtisoslashtirilgan ko'zi ojizlar maktab internati, 1-son internat uyi tarbiyalanuvchilari hamda Bolalar ijtimoiy moslashuv markazidan jami 167 nafar bolalar ishtirok etdi.

Bolajonlar uchun maxsus bayram dasturi, dasturxonasi va konsert tashkil etildi.

SDG 1



Dastawal ularga universitet jamoasining bayram tabrigi va samimiy tilamlari izhor etildi. Bolajonlarga universitet talabalari turli ertak qahramonlari obrazida xush kayfiyat va shodonlik ularshishdi.



Tadbir davomida universitet talabalari bolajonlarni faollikka chorlab, ularning iqtidorlarini yuzaga chiqarishga harakat qilishdi.

SDG 1

TDYU talabalari tomonidan Yunusobod tumanidagi 9 ta mahallada xayriya aksiyasi o'tkazildi

- Muhtojlarga ko'mak berish, ularning holidan xabar olib turish xalqimizga xos ezgu an'analardan biridir. Ushbu an'ana, ayniqsa, Ramazon oyida yanada ham o'zgacha shukuh ila amalga oshiriladi.
- Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari ham Ramazon oyida muhtojlar holidan xabar olish, ularga ko'maklashish maqsadida xayriya aksiya o'tkazdi.
- Yunusobod tumanidagi "Qashqar", "Buyuk To'ron", "Xusniobod", "Mirzo Ulug'bek", "Usta Shirin", "Astrobod", "Firdavsiy", "Islomobod", "Turk-qo'r'on" mahallalarida o'tkazilgan aksiya davomida talabalabar va professor-o'qituvchilar ishtirok etdi hamda ushbu hududlarda istiqomat qiluvchi 50 ta kam ta'minlangan va ijtimoiy muhtoj oilaga oziq-ovqat tarqatildi.



TDYUda “Oziq-ovqat xavfsizligini xalqaro va milliy darajada tartibga solish muammolari” mavzusida ilmiy munozara o’tkazildi



Ilmiy munozarada oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi, hozirgi davr global oziq-ovqat muammosi, oziq-ovqat xavfsizligining xalqaro va milliy tartibga solish, FAO va O’zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy hamkorligi kabi asosiy masalalar muhokama qilinib, bu boradagi qator muammolarni bartaraf etish, sohani yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va mulohazalar o'rtaga tashlandi.

Ilmiy seminar davomida xalqaro miqiyosda oziq-ovqat xavfsizligi, xalqaro huquqda oziq-ovqatga bo'lgan huquq, "Codeks Alimentarius" hujjatidan foydalanish, pandemiya davrida oziq-ovqat xavfsizligi, xalqaro hujjatlar va milliy qonunchiligidagi oziq-ovqat huquqi va oziq-ovqat xavfsizligiga oid normalar, oziq-ovqat sohasida xalqaro-huquqiy hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari bo'yicha fikr almashildi.



SDG 2

"Xalqaro volontyorlar kuni" munosabati bilan respublikamiz bo'ylab II Respublika volontyorlar forumi o'tkazildi.

Yoshlar bilan ishslash agentligi va UNDP hamkorligida tashkil etilgan forumda "Legal Tech" laboratoriyasi koordinatori Ilhom Norovning COVID-19 pandemiyasi davrida amalga oshirgan ishlari munosib baholanib, "Yilning eng yaxshi volontyori" unvoni bilan taqdirlandi. Ma'lumot uchun, Ilhom Norov COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurash doirasida aholiga tajribali shifokorlarning malakali tibbiy maslahatlaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi telegram botini yaratdi.



Bundan tashqari, u yolg'iz nafaqaxo'rlarga, kam ta'minlangan odamlarga oziq-ovqat yetkazib berish, shuningdek, og'ir kasallarni davolash muassasalariga olib borish ishlari ko'maklashdi. Shu bilan birga, o'zi ham koronavirusga chalinganiga qaramasdan volontyorlik faoliyatini to'xtatmadı.



SDG 2

**TDYU tomonidan
“Mahallabay” ishlash
tizimi qanday amalga
oshirilmoqda?**
**Toshkent davlat yuridik
universiteti xodim va
professor-o’qituvchilari
tomonidan Yunusobod
tumanidagi mahallalarda
“Mahallabay” ishlash
tizimi asosida qator
loyihalar amalga
oshirilmoqda.**



“Mahallabay” ishlash tizimi
TDYU tomonidan “Mahallabay” ishlash tizimi
qanday amalga oshirilmoqda?

- Xususan, “Ma’muriy va moliya huquqi” kafedrasi tomonidan “Husniobod” mahallasida aholi bilan sayyor uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuv davomida mahalla aholisiga kafedra tomonidan tavsiya etilayotgan kurslar haqida batafsil ma’lumot berildi. Tadbir davomida mahalla yoshlarining sport bilan muntazam shug’ullanishini yo’lga qo’yish maqsadida sport anjomlari taqdim etildi. Kafedra xodimlari ushbu mahallada istiqomat qiluvchi, bir necha yillardan buyon og’ir xastalik bilan kurashayotgan hamyurtimiz ahvoldidan xabar oldi.
- Shuningdek, “Jinoyat-protsessual huquqi” kafedrasi tomonidan “Qashqar” mahallasida tashkil etilayotgan “TDYU kutubxonasi” uchun badiiy kitoblar sovg’a qilinib, bepul “Wi-fi” o’rnatildi.
- Hozirda kafedra tomonidan mahalla yoshlari futbol bo'yicha “TDYU rektori kubogi”ga tayyorlanmoqda.
- Bundan tashqari, “Xalqaro huquq va inson huquqlari” kafedrasi professor-o’qituvchilari Yunusobod tumani “Firdavsiy” mahallasida tashrif buyurib

SDG 2



- Kafedra tomonidan mahalladagi maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyalanuvchilari uchun "Xalqaro bolalar kuni" munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etilib, bolajonlarga esdalik sovg'alari topshirildi.



SDG 3

TDYU talabalari “Shanxay Hamkorlik Tashkilotining sport elchiları” musobaqalarida faxrli o’rinlarni qo’lga kiritdi



“Milliy bog” sayilgohida o’tkazilgan bellashuvlarda talabalarimiz armrestling bo'yicha mahoratlarini sinovdan o’tkazdi.

Armrestling musobaqalarida TDYU “Jismoiy tarbiya va sport” kafedrasи mudiri Dmitriy Dokuchayev bosh hakam sifatida ishtirok etdi.

TDYU jamoasi “Sport — salomatlik garovi” shiori ostidagi spartakiadada umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi

O'zbekiston ta'lrim va fan xodimlari kasaba uyushmasi tomonidan “Sport — salomatlik garovi” shiori ostida spartakiada o'tkazildi.

Musobaqada Toshkent davlat yuridik universiteti jamoasi muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Jamoamiz 2 ta oltin, 1 ta kumush va 1 ta bronza medallarini qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi.



SDG 3

Quyida ushbu medallari qo'lga kiritgan universitet xodimlari bilan tanishishingiz mumkin:
Muzaffar Nodirov ("Jinoiy odil sudlov" fakulteti dekani o'rinnbosari) – darts bo'yicha 1-o'rin;
Maqsud Sodiqov ("Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasi o'qituvchisi) — badminton bo'yicha 1-o'rin;
Umida Haydarova ("Xorijiy tillar" kafedrasi katta o'qituvchisi) — badminton bo'yicha 2-o'rin;
Igor Kudryavsev ("Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasi professori) — shaxmat bo'yicha 3-o'rin.



Donorlik – eng oliy va yuksak jasorat!
Bugun Toshkent davlat yuridik universitetida Respublika qon quyish markazi bilan hamkorlikda 14-iyun – "Xalqaro donor kuni"ga bag'ishlab "Ularga hayot tuxfa qil!" deb nomlangan aksiya bo'lib o'tdi. Mazkur aksiyada 250 ga yaqin xodim va talabalar donor sifatida ishtirok etishdi.



SDG 4

Camp Law — o'zingizni Toshkent davlat yuridik universiteti talabasidek his qilish uchun ajoyib imkoniyat

- Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan "Camp Law" loyihasi yo'lga qo'yildi.
- Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan yangi loyihada maktab, litsey va texnikumlarning 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchilari ishtirok etdi.
- O'zbek va rus tillarida bo'lib o'tgan loyiha doirasida huquqiy savodxonlik va Legal English darslari, davlat tashkilotlariga tashriflar tashkil etildi.
- Loyer davomida ishtirokchilar uchun tushlik va kofe-breyklar ham tashkil etildi.



Camp Law — maktab, litsey, texnikum o'quvchilari uchun yozgi oromgoh.



Ishtirokchilarning yoshi: **14-18 yosh**

Ro'yxatdan o'tish: **camplaw.uz**
saytida **31-iyulga** qadar



TDYU va Sergeli tumanidagi 26 ta maktab o'rtaсиda memorandumlar imzolanib, "Yo'l xaritalari" tasdiqlandi

- Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda Toshkent davlat yuridik universiteti rektori A.Tashkulov, xalqaro hamkorlik va uzluksiz ta'lim bo'yicha prorektor D.Umarov, Sergeli tumani xalq ta'limi bo'limi boshlig'i Avazjon Mamadjanov, dekanlar, kafedra mudirlari, maktablarning direktorlari va o'qituvchilari ishtirok etdi.
- Tadbirda ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2022-yil 7-apreldagi 08-942-sun topshirig'iga muvofiq Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 26 ta umumta'lim maktabi ta'lim sifati va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish hamda ularni metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida Toshkent davlat yuridik universitetiga biriktirilgan.



SDG 4

- Ushbu “Yo’l xaritalari” aynan mazkur maktablardagi holat, o’quvchi va o’qituvchilarning fikri va takliflari, ta’lim muassasalarida uchrayotgan muammo va kamchiliklar asosida qator vazifalar belgilangan bo’lib, bu omil hamkor maktablarni yanada rivojlantirish va ulardagi masalalarga ijobjiy yechim topish uchun ilk qadamdir.



Mazkur “Yo’l xaritalari”da belgilangan vazifalar maktablarning mavqeini oshirish, pedagoglarining kasbiy mahorati va salohiyatini yuksaltirish, dars mashg’ulotlarini interaktiv usullar bilan innovatsion texnologiyalar asosida olib borilishini tashkil etish, o’quvchilarning zamonaviy bilim olishlari uchun yetarli sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

1 000 ta maktab direktori bilan “Street Law” loyihasi bo'yicha onlayn muloqot o'tkazildi

O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligida “Street Law” loyihasi bo'yicha onlayn muloqot o’tkazildi. Tadbir O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Adliya vazirligi hamda Toshkent davlat yuridik universiteti hamkorligida tashkil etildi.



SDG 4

Sergeli tumani maktab o'quvchilari uchun "TiLT Show" dasturi doirasida mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xorijiy tillar" kafedrasi tashabbusi tashkil etilayotgan loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad maktab o'quvchilarining ingliz tilidan og'zaki nutq va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.



"TiLT Show" dasturi doirasida mashg'ulotlar haftaning dushanba va juma kunlari 11:30 dan boshlab 208- va 221-auditoriyalarda o'tkaziladi. Mashg'ulotlar TDYU professor-o'qituvchilari va xorijiy ekspertlar tomonidan olib boriladi.

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoiy odil sudlov" fakulteti tashabbusi bilan Sergeli tumanidagi maktab o'quvchilari o'rtasida mini-futbol musobaqasi tashkil etildi. Musobaqada tumandagi 266-, 267-, 268-, 269- va 277-maktab o'quvchilaridan iborat jamoalar ishtirok etdi.



SDG 3

**Qizg'in va murosasiz bahslar
yakunida quyidagi natijalar qayd
etildi:**

- 1-o'rin — 267-maktab;**
- 2-o'rin — 268-maktab;**
- 3-o'rin — 277-maktab.**



SDG 5

Toshkent davlat yuridik universitetida xotin-qizlar uchun professional mentorlik va gender tengligi.

Toshkent davlat yuridik universitetida xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, gender tengligi tamoyilini samarali tadbiq etish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish hamda ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda.



Kursning asosiy maqsadi talaba-qizlarning ta'lif olishi va ilm-fan bilan shug'ullanishini qo'llab-quvvatlash va ko'maklashish, ularni davlat va jamiyat miqyosida gender tengligi bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishtirish hisoblanadi.

Xususan, universitetda talaba-qizlar uchun professional murabbiylik, ya'ni mentorlik bo'yicha bepul qisqa kurslar tashkil qilindi.

SDG 5

Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Dilafro'z Istamova universitet rahbariyati tomonidan 5 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi



Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi Dilafro'z Istamova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-martdagি PQ-4218-son qarori bilan Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi va mukofot 7-martda davlatimiz rahbari tomonidan tantanali topshirildi.

"Vazir kubogi"da TDYUning voleybol bo'yicha qizlar terma jamoasi kuchli o'nlikdan joy oldi



16 ta jamoa ishtirok etgan ushbu musobaqada TDYU qizlar terma jamoasi kuchli o'nlikdan joy oldi

SDG 5

Farangiz Po'lotova – “Yil talabasi – 2021” tanlovi respublika bosqichi sovrindori



Oliy ta'lif muassasalari talabalari o'rtaida an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan “Yil talabasi – 2021” respublika ko'rik-tanlovining “Yilning eng faol tadbirkor talabasi” nominatsiyasida TDYU “Xususiy huquq” fakulteti 3-bosqich talabasi Farangiz Po'lotova 2-o'rinni egalladi. F.Po'lotova Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining diplomi va 2 700 000 so'm miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

“Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tarafborimiz” mavzusida seminar-trening tashkil etildi

25-noyabr — Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish xalqaro kuni munosabati bilan mamlakatimizda o'tkazilayotgan “Biz zo'ravonlikka qarshimiz!” aksiyasi doirasida tashkil etilgan tadbirda Yuristlar malakasini oshirish markazi professori, xalqaro toifadagi yurist Lola Saidova, Yunusobod tumani IIO FMB XPB xotin-qizlar katta inspektori, podpolkovnik Shahnoza Abzalova va katta leytenant Eleonora Saparova, TDYU professor-o'qituvchilari va talaba-yoshlari ishtirok etdi.



SDG 6

Suvni tejaydigan asboblardan foydalanish



Appliance	Total Number	Total number water Efficient appliances	Percentage
Toilet	925	869	93 %
Wastafel	1256	1156	92 %
wash-basin	620	620	100 %
		Average Percentage	95 %

SDG 6

Suvni tejaydigan asboblardan foydalanish



Appliance	Total Number	Total number water Efficient appliances	Percentage
Toilet	925	869	93 %
Wastafel	1256	1156	92 %
wash-basin	620	620	100 %
		Average Percentage	95 %

SDG 6

Suvni tejaydigan asboblardan foydalanish



SDG 7

Arzon va toza energiya

Toshkent davlat yuridik universiteti rahbariyati va mas'ul xodimlari tomonidan energiya sarfini kamaytirish bo'yicha tizimli monitoring olib borilmoqda. Universitet eng so'nggi texnologik yutuqlarni shunday tatbiq etishga harakat qiladiki, ularni amalga oshirish samaradorligi talabalar va universitet xodimlari salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.



O'tgan 5 yil davomida Toshkent davlat yuridik universitetida LED yoritgichlar, quyosh energiyasida ishlaydigan ko'cha chiroqlari, energiya tejamkor stol qisqichlari keng joriy etilmoqda. Universitet binolarining tomlarida quyosh panellari joylashgan bo'lib, ular universitetni yil davomida qo'shimcha muqobil energiya bilan ta'minlaydi.

SDG 7

TSUL HAS A SPECIAL AREA WHERE THERE ARE BUILT-IN MILLS THAT PRODUCE ECOLOGICAL CLEAN ENERGY FOR THE UNIVERSITY CAMPUS



Bugungi kunda katta xonalar uchun havoni to'g'ridan-to'g'ri kengaytirish bilan yangi, zamonaviy turdag'i konditsioner tizimlar mavjud bo'lib, ular yanada samarali va tejamkor. Shu bilan birga, oraliq sovutgichli markazlashtirilgan konditsioner tizimlari tobora ommalashib bormoqda, ulardan biri chiller-fan lasan tizimi. Toshkent davlat yuridik universiteti ushbu tizimdan universitet binolarini sovutish uchun foydalanadi. Bizning tizimimizning uzunligi 10778 m.

SDG 8

Boshqaruv, professor-o'qituvchilar, ilmiy, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun Maxsus jamg'arma

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-apreldagi "Toshkent davlat yuridik universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2932-son qarori bilan TDYUda budget muassasalari va tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi (mehnatga haq to'lash fondining 15 foizi) bilan bir qatorda, budgetdan tashqari (to'lov kontrakt) mablag'lari hisobidan Boshqaruv, professor-o'qituvchilar, ilmiy, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun Maxsus jamg'arma ularning mehnatga haq to'lash fondining kamida 185 foizidan kam bo'limgan miqdorida tashkil etilgan.



SDG 8

Boshqaruv, professor-o'qituvchilar, ilmiy, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun Maxsus jamg'arma

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-apreldagi "Toshkent davlat yuridik universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2932-son qarori bilan TDYUda budget muassasalari va tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi (mehnatga haq to'lash fondining 15 foizi) bilan bir qatorda, budgetdan tashqari (to'lov kontrakt) mablag'lari hisobidan Boshqaruv, professor-o'qituvchilar, ilmiy, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun Maxsus jamg'arma ularning mehnatga haq to'lash fondining kamida 185 foizidan kam bo'limgan miqdorida tashkil etilgan.



SDG 8

Ilmiy konferensiya mamlakatimizda majburiy mehnatga barham berish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish masalalariga bag'ishlandi



25-noyabr — Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish xalqaro kuni munosabati bilan mamlakatimizda o'tkazilayotgan "Biz zo'ravonlikka qarshimiz!" aksiyasi doirasida tashkil etilgan tadbirda Yuristlar malakasini oshirish markazi professori, xalqaro toifadagi yurist Lola Saidova, Yunusobod tumani IIO FMB XPB xotin-qizlar katta inspektori, podpolkovnik Shahnoza Abzalova va katta leytenant Eleonora Saparova, TDYU professor-o'qituvchilari va talaba-yoshlari ishtirok etdi.

Kadr ish yurituvining (HR) huquqiy asoslariiga oid qisqa muddatli o'quv kursi bitiruvchilariga sertifikatlar topshirildi



SDG 8

TDYU huzuridagi Professional o'qitish markazida tashkil etilgan ushbu qisqa muddatli o'quv kursi (20 soatga mo'ljallangan) mashg'ulotlari masofaviy ta'lim shaklida o'tkazildi.



Kurs yakunida 21 nafar tinglovchiga sertifikatlar topshirildi




SDG 9

Sanoatlashtirish, innovatsiya va infrastruktura



The first building of
Tashkent State Law
University
Area: 2 246,76m²

The second building
of Tashkent State
Law University
Area: 2 220,29 m²



Amir Temur museum
under Tashkent State
University of law.
Area: 3 705,23 m²

SDG 9

Sanoatlashtirish, innovatsiya va infrastruktura



The third building of
Tashkent State Law
University
Area: 7 061,16 m²

Kafe Ugolok
Area: 15 000 m²



Ministry of Justice
Area: 5000 m²



SDG 9

Sanoatlashtirish, innovatsiya va infrastruktura



University alley, Amir Temur Park

Park Odo
Total planted vegetation area:
169840 m²
Total Area:
258 020 m²
Percentage area: 66%



Disabled parking
Disabled parking for disabled people to park their car which located at the nearest space bulding


SDG 9

Sanoatlashtirish, innovatsiya va infrastruktura



Accessible toilet for disabled people


Lactation room is private room for staff who are breastfeeding can pump breast milk in private



Mini green houses for students are organized in the university dormitories. In this place, students in their spare time are engaged in the cultivation of fruits such as tomatoes, cucumbers, lemons

SDG 9

Sanoatlashtirish, innovatsiya va infrastruktura



Fish pond

The Tashkent State Institute of law has a picturesque garden. In a small pond on it floats white, spruce. Inside are also fish from Japan.

Lake (Tashkent state University of Law, Uzbekistan)



Birds

SDG 9

Universitetimiz talabasi Toshev Azizbek tanlovda ishtirok etib g'oliblikni qo'lga kiritdi. Uning jamoasi 50 ming AQSH dollari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlandi.



Xabaringiz bor, O'zbekiston Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari hamkorligida talabalar o'rtasida mukofot jamg'armasi 100 ming AQSH dollariga teng bo'lgan 5 ta yo'nalishda ilg'or mobil ilovalar yaratish bo'yicha «mGovAward» tanlovi o'tkazilgan edi.

Kuni kecha mazkur tanlov g'oliblarini taqdirlashga bag'ishlangan marosim bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Oripov ishtirok etdi.

Tanlov yakunlariga ko'ra, masofaviy ta'limga mo'ljallagan "Roboteach" android ilovasini yaratgan jamoa faxrli birinchi o'rinni egalladi.

Universitetning Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi Toshev Azizbek "Roboteach" jamoasi a'zosi mazkur tanlovda munosib ishtirok etib, g'oliblik baxtini o'zida his etib turibti. Toshkent davlat yuridik universiteti jamoasi Azizbekni ushbu intellektual yutuq bilan samimiy muborakbod etadi hamda unga va jamoasiga keyingi ishlari ulkan muvofaqiyat tilaydi.

SDG 10

Sanoatlashtirish, innovatsiya va infrastruktura



Toshkent davlat yuridik universiteti va Milliy tiklanish demokratik partiyasi hamkorligida “Xotin-qizlar va yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashda O’zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining o’rni” mavzusidagi onlayn konferensiya o’tkazildi.



Poytaxtimizdagi “Hilton” mehmonxonasida “Gender tenglikni inobatga olgan holda odil sudlovnii amalga oshirish” mavzusida seminar-trening tashkil etildi

Seminar-treningda odil sudlovnii amalga oshirishda gender tenglikni ta’minlash, bu jarayonda gender kamsitishni bartaraf etish, sud tizimida ayollarning mavqeini oshirish masalalari hamda 2030-yilga qadar O’zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasida belgilangan vazifalar muhokama qilindi.



SDG 12

Toshkentdan chiquvchi maishiy chiqindilar miqdorining o'sish sur'atlari yiliga taxminan 6%ni tashkil qilib, tezkor choralar ko'rilmasa, 15 yildan keyin chiqindilar hajmi ikki hissaga oshadi. Qilish lozim bo'lgan yagona narsa – chiqindilarni to'liq qayta ishlash bo'lib, buni ko'plab yetakchi davlatlar tajribasi tasdiqlaydi. Bu chiqindilarni saralash bilan bog'liq bo'lib, hozirda aholi tomonidan chiqindilarni turli rangdagi qutilarga saralashga qaratilgan sinov loyihalari amalda. Ushbu yo'nalishda boshqa ko'plab tashabbuslar ham mavjud. Bugun biz organik chiqindilarni utilizatsiya qilish haqida so'z yuritamiz.

Muammolardan biri – to'kilgan xazonlarni utilizatsiya qilishdir. Qachondir ularni yoqib, havoni zaharlagan, keyin umumiyligi chiqindi to'kish maydonlariga olib chiqishgan. Vaholanki, bu o'g'itlar olinishi uchun qimmatli xomashyodir. Poytaxtimizning Olmazor tuman obodonlashtirish boshqarmasi to'kilgan barglarni maxsus kompost o'rasida utilizatsiya qiladi – bu uzunligi 57 metr, eni – 17 metr va chuqurligi 5 metr bo'lgan ulkan o'radir.

Boshqa ijobiyligi misol: "Maxsustrans" DUK organik chiqindilarni qayta ishlashni boshladi. Green International kompaniyasi bilan bu bo'yicha ishlanmoqda. Buning uchun Toshkent yaqinida yer maydoni ajratilgan. "Maxsustrans" bu yerga bozorlar, umumiyligi ovqatlanish maskanlari va boshqa obyektlardan to'plangan, saralangan organik chiqindilarni keltiradi. Bu yerda chiqindilar yana bir bora saralanib, somon yoki barglar va go'ngga bo'yicha egatlarga terilib, 6 hafta davomida quritiladi. Egatlarni Germaniyadan maxsus keltirilgan kombayn yordamida muntazam ravishda aralashtiriladi. Olti haftadan keyin mukammal o'g'it tayyor bo'ladi.

Bog'bonlar va fermerlar o'z xo'jaliklarida bunday tabiiy va ishonchli maxsulotdan foydalanishlari mumkin.

Toshkent davlat yuridik universiteti ushbu faoliyatni qo'llab quvvatlagan holda, "Maxsustrans" bilan bir necha shartnomalarni imloladi. Ushbu hamkorlik orqali TDYU yanada o'zining faoliyatini BTMning Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga muvofiq olib bormoqda.

SDG 13

TDYU jamoasi “O’zbekiston yoshlari iqlim o’zgarishiga qarshi” forumida ishtirok etdi Muammolardan biri.

Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida Yoshlar ishlari agentligi, O’zbekiston yosh fermerlari Kengashi va O’zbekistondagi Global ekologik fondining Kichik grantlari ko’magida “O’zbekiston yoshlari - iqlim o’zgarishiga qarshi” forumi bo’lib o’tdi.



Forumda Toshkent davlat yuridik universiteti sirtqi ta’lim va magistratura fakulteti talabasi S.Avazov, Ma’naviyat va ma’rifat markazi mutaxassislari, universitet jamoasi ishtirok etdi. Anjumanda yoshlar tengdoshlarining g’oyalarini tinglab, soha mutaxassislari bilan ochiq muloqot qilish imokoniyatiga ega bo’ldi.



SDG 13

O'zbekistonning BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidagi tashabbuslari tahlil qilindi

Toshkent davlat yuridik universitetida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi bilan hamkorlikda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi tashabbuslari" mavzuida davra suhbatи tashkil etildi. Videokonferensiya shaklida o'tkazilgan tadbirda BMTning O'zbekistondagi doimiy vakolatxonasi hamda Milliy markaz mutaxassislari, yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilar va talabalar ishtirok etdi.



Shuningdek BMTning O'zbekistondagi Doimiy muvofiqlashtiruvchisi Xelena Freyzer ham so'z olib, mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdi, mamlakatimiz xalqaro hamjamiyatning nafaqat to'laqonli subyekti, balki xalqaro norma ijodkorligi bo'yicha tashabbuskorlikda dunyo miyisosida yetakchi davlatlardan biriga aylanayotganini qayd etdi.

Yakunda, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish borasida mutaxassislarning fikrlari tinglanib, bu borada hamkorlikda harakat qilishga kelishib olindi.

SDG 13

TDYU jamoasi "Yashil makon" umummilliyl loyihasida faol ishtirok etmoqda



SDG 15

TDYU “Ekologiya huquqi” kafedrasi tashabbusi bilan Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo’mitasida sayyor dars mashg’uloti o’tkazildi

“Yer va suvni muhofaza qilish va ulardan foydalashning huquqiy tartibi” mavzusida o’tkazilgan mashg’ulotda Jinoiy odil sudlov fakulteti talabalari ishtirok etdi. Ochiq muloqot tarzida o’tgan darsda talabalar o’zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan javob oldi.



[@tsulofficial](#)

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo’mitasida sayyor dars mashg’uloti o’tkazildi



SDG 15

In the University, the colors of some waste containers were chosen as in traffic lights: red for plastic waste, yellow for paper and other dry waste, and green for all other types of waste that remained.

The waste is transported by a special machine for each type of waste, that is, for each container comes a separate machine. For example, on Monday the content of red container, on Wednesday the yellow and Friday the waste of green container will be removed, and for those responsible for the waste carriers of the same color will come and do their job.




The growth rate of household waste from Tashkent is about 6% per year, and if we won't take urgent measures, then the amount of household waste will double in 15 years. The only thing that needs to be done is the complete recycling of waste, which is confirmed by the experience of many leading countries of the world. This is related to sorting garbage, and currently the population is implementing pilot projects for sorting garbage into boxes of different colors. Today we are talking about recycling organic waste.

One of the problems is the disposal of fallen leaves. Once they were burned and then sent to public landfills. However, it is a valuable raw material for fertilizers. The management of the improvement of the Almazar district of the capital takes out the fallen leaves into a special compost bin 57 meters long, 17 meters wide and 5 meters deep. Unfortunately, among the leaves there is extraneous waste, thrown by our citizens on the sidewalks and roadsides, and it will continue to sort the leaves, removing plastic and paper from among them. This greatly complicates and slows down the recycling process.

SDG 15

Another positive example: State Unitary Enterprise "Makhsustrans" (Special Transport) has started processing organic waste. Work is underway with Green International on this project. For this, a land plot has been allocated near Tashkent. "Makhsustrans" (Special Transport) brings sorted organic waste from markets, restaurants and other facilities. Here the waste is re-sorted, added to straw, leaves or special manure, collected in rows using German technology and dried within 6 weeks. The leaves are regularly mixed on a specially imported combine harvester from Germany. After six weeks, the ideal fertilizer is ready. Gardeners and farmers can use this natural and reliable product on their farms.




Fish pond

The Tashkent State Institute of law has a picturesque garden. In a small pond on it floats white, spruce. Inside are also fish from Japan.

SDG 15

Another positive example: State Unitary Enterprise "Makhsustrans" (Special Transport) has started processing organic waste. Work is underway with Green International on this project. For this, a land plot has been allocated near Tashkent. "Makhsustrans" (Special Transport) brings sorted organic waste from markets, restaurants and other facilities. Here the waste is re-sorted, added to straw, leaves or special manure, collected in rows using German technology and dried within 6 weeks. The leaves are regularly mixed on a specially imported combine harvester from Germany. After six weeks, the ideal fertilizer is ready. Gardeners and farmers can use this natural and reliable product on their farms.



Fish pond

The Tashkent State Institute of law has a picturesque garden. In a small pond on it floats white, spruce. Inside are also fish from Japan.

SDG 16

Universitet kengashi

Toshkent davlat yuridik universiteti kengashi universitetning doimiy ravishda faoliyat yurituvchi oliy organibo'lib, universitet hayotiga doir qarorlarni mustaqil qabul qiluvchi tuzilma hisoblanadi. Kengash Universitetning kollegial organi hisoblanib, Universitetning tashkiliy-boshqaruv, o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-innovatsion, ma'naviy-ma'rifiy va moliya-xo'jalik faoliyatining asosiy masalalari bo'yicha kollegial qarorlar qabul qiladi.

Kengash tarkibi

Kengash tarkibi rektor tomonidan tasdiqlanadi. Kengash to'g'risidanizom va uning reglamenti Kengash tomonidan tasdiqlanadi. Kengash tarkibiga:

- prorektorlar;
- fakultet dekanları;
- kafedra mudirları;
- ayrim tarkibiy bo'linmalar rahbarları;
- yetakchi professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlar kiradi.

Kengash tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi va boshqa manfaatdor vazirlilik, tashkilot va idoralarning vakillari kiritilishi mumkin.

Kengashning asosiy vazifalari:

- universitet faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- universitetning tarkibiy bo'linmalari faoliyatida qonun hujjatlariga rioya qilinishi ustidan samarali nazorat va monitoringni amalga oshirish;
- huquqshunos kadrlarni, ilmiy, ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish;
- "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash bo'yicha bazaviy davlat oliy ta'lif va ilmiy-metodik muassasasi sifatida universitetning barcha sohalar uchun malakali huquqshunos kadrlarni tayyorlash bo'yicha o'quv, metodik, ilmiy va boshqa faoliyatini samarali tashkil etish;
- yuridik fanlar bo'yicha ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, rahbar xodimlar va mutaxassislarni kasbiy qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlari samaradorligini oshirish va boshqalar;

SDG 16

TDYU Talabalar Assotsiatsiyasi

· Toshkent davlat yuridik universitetida tahlil olayotgan bakalavr va magistr talabalari, mustaqil izlanuvchilar va doktorantlar O'zbekiston Respublikasi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda o'z sa'y-harakatlarini birlashtirish zarurligini anglagan holda, shuningdek, talabalar o'ttasida do'stlik va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash, ularning o'quv samaradorligini oshirish, O'zbekiston va dunyoning boshqa mamlakatlaridagi talaba va yoshlar tashkilotlari bilan yaqin hamkorlik qilish maqsadida TDYU Talabalar Assotsiatsiyasi tashkil etilgan.

· Assotsiatsiya talabalarning jamoat tashkiloti bo'lib, o'z faoliyatini ixtiyorilik, o'z a'zolari tengligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkorlik tamoyillari asosida amalga oshiradi.

· Assotsiatsiya universitet missiyasini amalga oshirishga ko'maklashadi va qo'llab-quvvatlaydi.

Assotsiatsiyaning maqsadlari:

Birdamlik, do'stlik, hamkorlik va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash bo'yicha tizimli ishlar olib borish.

TDYU ma'muriyatiga o'quv faoliyatini yaxshilashda yordam berish, o'zlashtirishi past talabalarga zarur yordamni tashkil etish, talabalarni ilmiy to'garaklar va jamiyatlarga jalb qilish.

Talabalarning o'quv jarayoni, kundalik hayoti va ularni qiziqtiradigan barcha dolzarb masalalarni hal qilishda ishtirop etish. Mahalliy va xalqaro talabalar tashkilotlari bilan hamkorlik qilish.

Talabalarni fuqarolik mas'uliyatida tarbiyalash, ularning faol fuqarolik pozitsiyasi va fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularda ijtimoiy yetuklik, shaxsiy rivojlanish, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarishqobiliyatini rivojlanterish.

TDYUda ta'lif sifatini oshirishga ko'maklashish.

O'zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent davlat yuridik universitetidagi boshlang'ich tashkiloti talabalarni mamlakatimiz va dunyodagi demokretik, siyosiy va iqtisodiy jarayon va islohotlar bilan tanishtirish, yoshlarning huquqlari, erkinlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning kasbiy malakasi, ijodiy va intellektual salohiyatini oshirishni maqsad qilgan. Boshlang'ich tashkilot tomonidan bu yo'nalishda qator ishlar amalga oshirilmoqda.

SDG 16

TDYU Talabalar Assotsiatsiyasi

Isoqov Furqat Ahmadjon o'g'li
Universitet yoshlar yetakchisi —
Rektorning yoshlar masalalari
bo'yicha maslahatchisi

TDYUda korrupsiya holatlariga
duch kelsangiz @antikorbot ga
xabar qiling



EKSPERTLAR
TDYU "Sud, huquqni
muhofaza qiluvchi organlar
va advokatura" kafedrasi
mudiri Valisher Davlyatov

Ayni paytda Adliya vazirligi tizimidagi, jumladan, adliya boshqarmalari va bo'limlari, notarial idoralar, davlat xizmatlari markazlari, FHDY organlari va yuridik ta'lim muassasalaridagi korrupsiya holatlari haqida ma'lumotlarni telegramdagi @antikorbot botiga, "1008" ishonch telefoniga yoki vazirlik rasmiy veb-saytidagi maxsus platformaga (<http://www.minjust.uz/uz/anticorruption/feedback>) yuborishingiz mumkin.

Yuborilgan xabarlar belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi hamda murojaat qiluvchining shaxsi sir saqlanadi.

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Toshkent davlat yuridik universitetida “Ekologiya huquqi” kafedrasи o’quv dasturligabarqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha fan va modullar kiritildi. “Barqaror rivojlanish: nazariya va amaliyot” moduli 70420129 – “Atrof muhit huquqi va barqaror rivojlanish” soha mutaxassisligi magistratura talabalari uchun moljallangan bo'lib, ulardan ekologiya huquqi, xalqaro huquq, ma'muriy huquq, huquq nazariyasi bo'yicha bazaviy bilimga ega bo'lish hamda og'zaki va yozma yuridik o'zbek yoki rus tilini puxta bilish talab etiladi.

Modulning maqsadi:

“Barqaror rivojlanish: nazariya va amaliyot” moduli BMT barqaror rivojlanish dasturida belgilangan maqsadlarni amalga oshirishning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, mazkur modul doirasida talabalarning sohalararo tatqiqotlarni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish, tahliliy fikrlashini rivojlantirish, nazariy bilimlarni chuqurlashtirish hamda mazkur bilimlar bilan bog'liq amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Mazkur modul barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy asoslari, qashshoqlik va ochlikni tugatish, sog'lik va farovonlikka erishish, aholi uchun toza suv va sanitariyaning mavjudligini ta'minlash, aholini arzon va toza energiya bilan ta'minlash, barqaror rivojlanish yo'lida innovatsiyalarni joriy qilish, sanoatlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish, shaharlar va boshqa aholi punktlarini barqaror rivojlantirish, mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o'tishni huquqiy ta'minlash, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash va uning salbiy oqibatlarini yumshatish, quruqlikdagi ekotizimlarni himoyalash va tiklashning huquqiy masalalari, barqaror rivojlanish yo'lida xalqaro hamkorlik kabi global ahamiyatga ega masalalarni o'rganishga bag'ishlangan.

Mazkur modul doirasida talabalarga sohalararo tatqiqotlar o'tkazish, ularning tahliliy fikrlashini rivojlantirish hamda davlat va jamiyat rivoji uchun zarur strategik qarorlar qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan zarur o'quv matyeriallari, ma'ruza, seminar va yozma topshiriqlar qamrab olinadi.

Modul o'zbek va rus tillarida olib boriladi.

SDG 17

TDYU va "Regional Dialogue" o'rtasida hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi

Uchrashuvda TDYU rektori Akbar Tashkulov, Xalqaro hamkorlik va uzlusiz ta'lif bo'yicha prorektor Dilshod Umarov, tashkilotning mamlakatimizdagi filiali rahbari Petra Goryup, filial rahbari o'rinnbosari Behzod Sharipov, filial dasturi mutaxassis Nodirjon Jo'rayev hamda universitetning mas'ul xodimlari ishtirok etdi.



T DYU va Buyuk Britaniyaning Oliy ta'lif sifatini ta'minlash agentligi o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yildi

Uchrashuvda Toshkent davlat yuridik universitetidagi ta'lif jarayonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish jarayonlarini ta'lif sifatini sertifikatlash va akkreditasiyadan o'tkazish masalalari muhokama qilindi.

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori Akbar Tashkulov boshchiligidagi universitet delegatsiyasining Buyuk Britaniyaga tashrifi davom etmoqda.

Tashrifning navbatdagi kunida delegatsiya a'zolari Buyuk Britaniyaning Oliy ta'lif sifatini ta'minlash agentligi (The Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA))ning xalqaro va professional xizmat bo'yicha direktori, professor Stefani Senford, akkreditatsiyalash va konsalting departamenti boshlig'i Alisan Fels hamda biznesni rivojlantirish direktori Julie Till bilan muzokara o'tkazdi.

SDG 17

TDYU Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) bilan hamkorlik qiladi

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning raqobat, moliya va tadbirkorlik masalalari bo'yicha katta ekspertlari Sabine Zigelski va Renato Ferrandi Toshkent davlat yuridik universitetiga tashrif buyurdi.



TDYU Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) bilan hamkorlik qiladi

Tashrif avvalida ikki mehmon va universitet prorektori Baxshillo Xodjayev, Xalqaro hamkorlik boshqarmasi boshlig'i Rustam Umarov, "Biznes huquqi" kafedrasи professor-o'qituvchilari ishtirokida uchrashuv tashkil etilib, TDYU tadqiqotchilari va talabalari uchun raqobat huquqi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash qaratilgan seminar, konferensiya va treninglarni tashkil qilishda hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilindi.

Muzokaralar yakunida OECD mutaxassislari ishtirokida mazkur yo'nalishdagi tadbirlarni tashkil etishga kelishib olindi.

Uchrashuvdan so'ng mehmon mutaxassislar tomonidan tadqiqotchilar va talablar uchun "Raqobatbardoshlikni ta'minlashning adolatli bozor shartlari" mavzusida ochiq dars tashkil etildi.



SDG 17

“O’zbekiston va BMT: kelajak hamkorlik yo’lida” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o’tkazildi

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning raqobat, moliya va tadbirkorlik masalalari bo'yicha katta ekspertlari Sabine Zigelski va Renato Ferrandi Toshkent davlat yuridik universitetiga tashrif buyurdi.



“O’zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti oyligi doirasida TDYU “Xalqaro huquq va inson huquqlari” kafedrasini tomonidan tashkil etilgan anjuman O’zbekiston Respublikasining BMTga a’zo bo’lganining 30 yilligiga bag’ishlandi.

Konferensiya qator xalqaro va milliy tashkilotlar, davlat organlari va vazirliklar vakillari hamda Jahan iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professor-o’qituvchilari va talabalari ishtirok etdi.

Anjuman davomida O’zbekiston va BMT o’rtasidagi 30 yillik hamkorlik doirasida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar va kelgusidagi rejalar xususida ma’lumot berildi.

Shuningdek, mamlakatimizning zamonaviy xalqaro huquqdagi roli va tashabbuslari, xalqaro va milliy huquqiy tizimlarning o’zaro bog’liqligi va rejimlari, BMT Xalqaro sudi faoliyatini takomillashtirish, YUNISEF va O’zbekiston Respublikasi hamkorligi, inson huquqlarini ta’minlashda Ombudsmanning o’rni kabi xalqaro huquqning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Konferensiya yakunida anjuman davomida bildirilgan xulosa va takliflar O’zbekiston Respublikasida xalqaro huquq va inson huquqlarini yanada rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etildi.

SDG 17

